



TALABALARNING KASBIY PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Boymurodova Gulchexra Mamatkarimovna

GulDU tibbiyot fakulteti tyutori

Annotatsiya: *Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi – jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Bo'lajak Pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa, ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak pedagoglarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda Pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Ushbu maqolada talabalarning kasbiy pedagogik va psixologik kompetensiyalarini takomillashtirish usullari haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *talaba, kompetensiya, oliy ta'lim, kompetentlik, pedagogika, fikr, tarbiya, innovatsion jarayon, tamoyil, pedagogik texnologiya, kasb.*

Zamonaviy rivojlangan jamiyatga ilmi, ma'naviyatli, barqaror rivojlanish talablariga javob beradigan, respublikamiz kelajagi uchun qayg'uradigan intellektual yetuk avlodni tarbiyalash zarur.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar, rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlari, ilm-fan, texnika, texnologiyalarning rivojlanishi va axborotlarning tezkor almashinuvi jarayonida oliy ta'lim tashkilotlari uchun o'qituvchi-pedagoglarni tayyorlash, kelajakda faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan pedagogik jarayonlar uchun ilmiy-metodik jihatdan kasbiy yetukligini ta'minlash bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, harakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi.

Kompetentlik - ma'lum fan sohasida samarali faoliyat olib borish uchun bilim va tajribalarni egallash.

Kompetentlik (lotincha competens- mos keladigan, muvofiq keladigan, qobiliyatli, bilimli) qaysidir sohada har tomonlama mukammal bilim egallagan

shaxsga xos sifat va qarashlar bo'lib, shuning uchun salmoqli, nufuzli hisoblanadi.

Kompetentlik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyat, real

baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish kabi sifatlar

ham kiradi.

Talaba-yoshlarni o'z ajdodlari tarixi, madaniyati, urf-odati, milliy qadriyatlariga sodiq qilib tarbiyalashimiz shunchalar zarurki, toki ular ajdodlarini xotirlaganda, qalbida g'urur va iftixor hissini tuysinlar. Shu o'rinda, Sharqning buyuk mutaffakkir qomusiy olimi Abu Rayxon Beruniy shunday yozadi: "Faxrlanish haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe'llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, xulq uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, xulq uning zarariga bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda dastlab ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish amaliyoti, uning vujudga kelish tarixi, kasbiy kompetensiyaga oid nazariy-metodologik yondashuvlarga yo'naltirilgan tarixiy ma'lumotlarni o'rganish va ulardan pedagogik faoliyatda samarali foydalanish zarur. Shuningdek, talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha ta'lim-tarbiya metodlari uning qadimiy ildizlari (genezisi)ni aniqlashda Sharqning taniqli qomusiy olim va mutafakkirlarining xissasi kattadir.

Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni quyidagicha tavsiflaymiz:

Innovatsion yondashuv (pedagogik innovatika, pedagogik innovatsiya) - Innovatsion ta'lim so'zining zamirida yangilikni tashkil qilish, yangilikni



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

o'zlashtirish, yangilikdan foydalanish, yangilikni namoyon etish kabi kompleks faoliyat yotadi.

Innovatsion ta'lim - ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalarni, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta'lim innovatsiyalari-ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta'lim sohasida innovatsion jarayon - bu ta'lim konsepsiyasidagi, o'quv dasturlaridagi, usul va uslublardagi, tarbiya va o'qitish usullaridagi yangilik va o'zgarishlardir. Ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar so'zining tub ma'nosida pedagogikaning ikkita muhim - o'rganish, umumlashtirish va ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish muammosi va pedagogika fanlari yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish muammosi yotadi. Shunday ekan, innovatsiyaning predmeti va innovatsion jarayonlarning tarkibi, mexanizmi bir - biriga o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlar jamlanmasi tarkibida bo'lishi kerak. Aynan, innovatsion faoliyat xizmat ko'rsatish bozorida oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatbardoshlikning asosini yaratibgina qolmay, professor - o'qituvchining kasb mahoratining o'sishini, ijodiy izlanishini, amaliy jihatdan ochib beradi. Shuning uchun ham, innovatsion faoliyat o'qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyati va talabalarning o'quv jarayoniga ijodiy faoliyati bilan uzluksiz bog'liq.

Innovatsion faoliyat - yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Oliy ta'lim muassasasida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yangicha yondashuvi uchun avvalambor pedagog o'zi ta'limda innovatsion faoliyat yuritishi kerak.

Talabalarda kasbiy sifatlarni takomillashtirish jarayoni pedagogik talablar (kasbiy mahorat, deontologik sifatlar) asosidagi akmeologik motivatsiya tuzilmasini ichki integratsiyalashga ustuvorlik berish negizida takomillashtirishga mo'ljallangan. Bundan tashqari ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, davlatning ta'lim sohasidagi asosiy tamoyillaridan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi.

Talabalarning kasbiy sifatlarini takomillashtirishning quyidagi tamoyillarini ko'rib o'tamiz.

Ilmiylik tamoyili amaliy ahamiyatga ega bo'lgan nazariy bilimlar, faktlar, tushunchalar, qoidalar va ilmiy kompetensiyalarni o'rganishni kafolatlaydi.

Tizimlilik tamoyili – o'qitish maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini tizimli va mantiqli shakllanishiga erishishni ko'zda tutadi.

Izchillik tamoyili – talabalar tomonidan pedagogik tushunchalarni izchil o'zlashtirish, kompetensiyalarni bosqichli ketma-ketlikda shakllantirish va maqsadli foydalanishni taqozo etadi.

Ko'rgazmalilik tamoyili – talabalar tomonidan mustaqil tabiiy, tasviriy, tarqatma, didaktik, audio-videomateriallar, multimedia, internet va elektron o'quv vositalaridan unumli foydalanishni ko'zda tutadi.

Ta'lim va tarbiyaning uzviyligi tamoyili - ta'lim mazmuni, izchilligi va mantiqan bog'liqligi, ushbu jarayonda o'zaro uzviylikni ta'minlash, o'quvchilarda madaniy muloqotni shakllantirish va rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Onglilik tamoyili – mustaqil kompetensiyalarini egallashda talabalardan kompetentlilik darajasini ongli yuksaltira bilishni talab qiladi.

Tushunarlilik tamoyili – yangi bilimlarni o'zlashtirishni qulay qiladigan, asosiy g'oyani anglashini osonlashtiradigan atama va tushunchalardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Uzviylik tamoyili- talabalarning avval o'zlashtirgan bilimlari bilan yangi o'rganilayotgan mavzular o'rtasidagi sathlararo aloqadorlik saqlanishi, shuningdek, imlo, punktuatsiya va uslubiyatga doir bilimlar ham matn yaratish bilan uzviylikda takomillashtirilishi nazarda tutiladi.

Zamonaviy bo'lajak maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy maqsadi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- oliy ta'lim tizimining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- oliy ta'lim muassasalari talabalarining yetarli darajada tashkiliy, pedagogik-metodik bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishini ta'minlash;
- ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda talabalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish;
- oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va takomillashtirishni motivlashtirish;



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

- maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda innovatsion faoliyatga tayyorgarligini ta'minlash, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va axborot kommunikatsion texnologiyalardan pedagogik faoliyatda samarali foydalanish;

- maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda ularning pedagogik, psixologik tayyorgarligi va ijtimoiy faolligini oshirishga erishish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etishga yo'naltirilgan faoliyatni samarali tashkil etish kabilardan iborat.

Shunga ko'ra, zamonaviy yondashuvlar, ilg'or pedagogik texnologiya va uslublarga asoslangan holda talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam rivojlantirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Bizning eng katta yutuq'imiz o'z boyligimizga o'zimiz ega bo'lganimizdir. Binobarin, yoshlarga bu boyliklarning qadriga yetish zarurligini o'rgatishimiz, ularda minnatdorchilik, g'urur va ishonch tuyg'ularini tarbiyalashimiz kerak. Ma'naviy-axloqiy mukammallik, vijdoniylik, or-nomuslilik, yaqinlariga g'amxo'r bo'lish va boshqa insoniy tuyg'ular o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Ularning asosida tarbiya yotadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yosh avlodni tarbiyalashda oliy ta'lim muassasalarida ajdodlar merosi, milliy qahramonlar, buyuk siymolarning ibratli hayot yo'li haqidagi qarashlar, ularning purma'no asarlari, o'git, matal, rivoyat, xalq og'zaki ijodi, ertak, hikoyalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Talabalarda milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash, faxr, vatanparvarlik, sadoqat, iftixor hislarini shallantirish uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va Pedagogik mahorat. – T.: 2003.
2. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psixol. fan.nom. diss...avtolojiha. Toshkent: 2002.
3. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015.
4. X.SHaripov, N.Muslimov, M.Ismoilova: "Kasbiy ta'lim pedagogikasi". Metodik qo'llanma. T. 2005 y.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

5. M.Usmonboeva, G.Anorkulova, G.Shamaripxodjaeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv uslubiy majmua. T. 2015
6. N.A.Muslimov Bo'lajak kasb-ta'limi pedagogisini kasbiy shakllantirish T., Fan 2004.
7. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. T.: «Fan va texnologiya», 2017
8. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - T.: "Iste'dod", 2008.
9. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2013